

CHET TILINI O'RGANISH JARAYONIDA KO'P UCHRAYDIGAN XATOLAR VA ULARNING BA'ZI YECHIMLARI

Furqatova Maxliyo To'lqin qizi

(O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti o'qituvchisi)

Nasullojeva Shahlo Baxtiyor qizi

*(O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti xorijiy til va adabiyoti
yo'nalishi 1-bosqich talabasi)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada birinchi o'rinda jahon tillari va ularni o'rganish bilan birga o'z tilini o'lik tilga aylanishiga sabab bo'lib qolmaslik, shuningdek, chet tillarini o'rganish va asosan o'rganuvchilar duch keladigan muammolar haqida gap yuritiladi. Ma'lumki, yer yuzida bir qancha tillar mavjud bo'lib, ular bir biridan grammatik va talaffuz jihatidan ham bir muncha farq qiladi. Ma'lum muddat o'tishi bilan o'rganuvchilarning qat'iyati va mas'uliyatliligi bilan grammatika ma'lum darajada mukammalroq o'zlashtirilganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin nima uchun talaffuzda baribir xatoliklar va yetishmovchiliklar ko'p uchrab turadi? Ko'pchilik o'zga tilda mukammal talaffuz bilan gapirishga harakat qiladi. Ba'zan esa bu jarayonga juda ham berilib ketish boshqa muammolarga ham olib kelishi mumkin. Bunday holatlar aynan qachon vujudga keladi? Oldini olish uchun biror choralar bormi? Bu maqolada shu kabi savollarga javob topishga harakat qilaman.*

Kalit so'zlar: *xorijiy tillar, o'layotgan tillar, ko'p uchraydigan xatolar, talaffuz, qulay atmosfera, ta'lim, yuqori maosh, ikkinchi til o'rganuvchilari, ikkinchi til o'rganuvchilari(1).*

KIRISH

Dunyo shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda insonlarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ehtiyoji ham oshib bormoqda. Bu qiziqish va ehtiyojlar bir nechta muhim jihatlarda o'z aksini topadi. Masalan, kimdir ta'lim olish yoki sayohat uchun chetga chiqishni rejalashtirgan bolsa, boshqalar ishlash, yaxshi pul topish yoki yashash uchun rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarga borishni xohlaydi. Bunday sharoitlarda esa chet tilini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra yer yuzida 5600dan ortiq til va shevalar mavjud bo'lib(2), ularning bir qanchasi o'lik tillarga aylanayotganligi ushbu ko'rsatkichlarning har kuni o'zgarib borayotganligiga sabab bo'layotganligini ham hisobga olish muhim, deb o'ylayman. Ularning yo'qolib borishi esa ko'p jihatlarda, boshqa eng ko'p o'rganilayotgan tillarga

bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi. Sababi zamon talabi bilan rivojlangan yoki rivojlanib borayotgan davlat tillariga insonlarning qiziqishi yuqori bo'lib, o'sha davlatlarda bo'lish, o'zlarining ehtiyojini qondirishga bo'lgan ishtiyoq juda kuchli; va ikkinchi til o'rganuvchilarining boshqa til o'rganish paytida o'z tiliga bo'lgan bepisandligi yoki e'tiborsizligi natijasida o'z tillarini butunlay yoki qisman bo'lsada unutib yuborayotganligi bilan bog'liq. Bunday vaziyat, shuningdek, kam aholi soniga ega bo'lgan millatda nisbatan ko'proq uchraydi(3). Shuni ham unutmaslik kerakki, bir til yo'qolib borar ekan nafaqat tilning o'zi, balki o'sha millatning urf-odatlarini, tarixi va milliyligi ham zavolga yuz tutadi.

Chet tilini o'rganish hammada har xil kechadi. Masalan: abituriyent yoki ta'lim olish uchun chetga chiqishni xohlayotganlar tilni grammatik, leksikologik, morfologik va shu kabi boshqa jihatlari bilan o'rganishni ko'zlaydi; ishlash, yashash yoki sayohat uchun ketmoqchi bo'lgan insonlar bu jihatlarni unchalik chuqur o'rganmasdan so'zlashuvga ko'proq e'tibor qaratadi. Bular ham o'z o'rnida ma'lum guruhlariga bo'linadi va ularni sanab o'tishda ta'lim bilan bog'liq holatlarni hisobga olib fikrimni davom ettirishga harakat qilaman. Ma'lumki, bugun nafaqat butun dunyoda, shuningdek, yurtimizda ham ikkinchi, uchinchi til o'rganuvchilari soni shiddat bilan oshib bormoqda. Ingliz, rus, kareys va fransuz tillariga bo'lgan qiziqish kattalar va yoshlar orasida ham birdek oshib borayotgani ham hech kimga sir emas. Yuqorida chet tilini o'rganish maqsadiga ko'ra o'rganuvchilarni bir nechta turga bo'lganimdek ular o'z ichida ham yana guruhlariga bo'linadi. Osonroq tushunib olishimiz uchun ularni mana shunday ta'riflab o'tishimiz mumkin: tilni yuzaki o'rganuvchilar va chuqur o'rganuvchilar.

Misol uchun shunday abituriyent yoki studentlar borki, ular tilni ko'proq testdan yaxshi natija bilan o'tish yoki yuqoriroq ball to'plash uchun o'rganishadi. Bunday o'rganuvchilar til o'rganish jarayonida o'sha til atmosferasini chuqur his qila olishmaydi va faqat vaziyatga majburiyat sifatida baho berishadi. Tilni chuqur kirishib o'rganuvchilar esa ham yuqori natijalarga erishishni, ham buni o'zlari uchun qiziqarli jarayonga aylantirishga harakat qilishadi. Ya'ni ular faqatgina test ishlash yoki o'qituvchi bergan vazifalarni bajarish bilangina cheklanib qolmaydi. Natijada til o'rganish jarayoni oson, qiziqarli va arziqli bo'ladi.

MUAMMO

Har bir ishning o'z qiyinchiliklari bor bo'lgani kabi til o'rganishda jarayonida ham bir qancha mushkulotlar mavjud. Til o'rganish jarayonida ko'pchiligimiz duch keladigan muammo va qiyinchiliklar: yangi boshlovchilar uchun grammatik va leksik xatolarning ko'p bo'lishi, yangi bo'lmagan o'rganuvchilarda ham shunday xatolarning uchrab turishi, til o'rganishning

zerikarli va qiyin jarayonga o'xshash ekanligi, lug'at boyligini oshirishdagi qiyinchiliklar va talaffuz qilish bilan bog'liq xatolar. Bunday xatolar asosan chet tillarini qisqa muddatda tezlik bilan o'zlashtirishga harakat qiladigan o'rganuvchilarda uchrab turadi.

YECHIM

Ma'lumki til o'rganish jarayonida har bir yangi o'rganuvchida hamma turdagi xato uchrab turadi; u xoh grammatik, xoh talaffuz jihatidan bo'lsa ham. Bu kabi o'rganuvchilarda tortinish va uyalish kabi hissiyotlar juda ko'p kuzatiladi. Ammo bu unchalik jiddiy kamchilik yoki xato emas va odatda, ko'pchilik tomonidan bu to'g'ri qabul qilinadi. Chunki har bir o'rganuvchi shu jarayondan, albatta, o'tgan bo'ladi. Bu yangi o'rganuvchilar uchun tabiiy hol ekan, xo'sh, nimaga bir necha yillik o'rganuvchilar ham bu kabi xatolarga duch kelib turadi? Sababi, birinchidan, har bir til grammatikasi bir-biridan farq qiladi va unga moslashish jarayoni sekin kechishi mumkin. Yoki ko'pchilikda kuzatiladigan holat: eng qiyin bo'lgan qoidalarni ham amalda qo'llay olish, ammo eng kichik qoidani xato qo'llab ketish.

Masalan: If she come today, we will hear some music during cleaning home.

Bu gapni tuzish jarayonida o'quvchi iflik gani to'g'ri qo'lladi, musiqa so'zining sanalmaydigan ot ekanligini ham unitmadi, lekin oddiygina ||| shaxs birlikdagi otdan keyin kelgan fe'lga -s qo'shimchasini qo'shishni unutib qo'ydi. Bunday xatolar ko'pchilikda uchrab turadigan kichik xatolar sanaladi. Shunday ekan, bu holatning oldini olish uchun gap tuzish jarayonlarida qiyin qoidalarni to'g'ri qo'llash bilan birga oddiylarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik juda zarur. Yana bir qiyinchiliklardan biri shuki, u til o'rganish jarayonida tezda zerikib qolish bilan bog'liqdir. Bu odatda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarning, qilish kerak bo'lgan ishlarning ko'pligi va vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik natijasida vujudga keladi. Bunday vaziyatda biz uchun eng muhimi til o'rganish jarayoni ekan, qolgan ishlarimizni iloji boricha tezroq bitirib olishga harakat qilish va til o'rganish uchun o'zimizga qulay bo'lgan vaqtni tanlab olish. Misol uchun kimdir erta tongda ma'lumotlarni tezroq qabul qila oladi va o'zini yaxshi his qiladi, kimdir esa, kechki payt o'zini aktivroq his qiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu jarayon zerikarli va qiyin tuyulmasligi uchun yaxshi atmosfera yaratish va ma'lum muddat davomida ko'ngilochar mashg'ulotlar qilib turish, masalan, o'zingiz o'rganayotgan tilda musiqa eshitish, video yoki kinolar ko'rish, o'zingiz yoqtirgan snek yoki taomlar bn yengil tanovvul qilish va shunga o'xshash mashg'ulotlar qilib turish eng samarali usullar hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'pchilik xotirasi yaxshi emasligi, so'zlarni eslab qolishi qiyin kechayotganidan shikoyat qiladi. Ularga esa faqat va faqat takrorlash va sabrli

bo'lish tavsiya etiladi, chunki har bir tilning o'ziga yarasha keng lug'at boyligi bo'ladi va uni o'zlashtirish va o'rganish oson kechmaydi, albatta.

Shuningdek, o'zingiz o'rganayotgan tilda ko'proq kitoblarni o'qib tarjima qilish ham muqobil tavsiyadir. Chunki unda lug'atlar takrorlanishi o'z-o'zidan eslab qolish jarayonining osonlashishiga olib keladi.

Yana bir ko'p uchraydigan holatlardan biri bu tallafuz bilan bog'liq bo'lib, hattoki eng yaxshi grammatika o'rganuvchilari ham shu joyida bir muncha qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz keladi. Har qancha harakat qilishmasin, gapirayotganda talaffuzning ona tilidagi talaffuzga tortib ketishi tabiiy hol. Bu aynan nima bilan bog'liq. Har birimiz o'z ona tilimizda juda yaxshi gapira olamiz va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilamiz, chunki biz uni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirganmiz, ya'ni tug'ilganimizdanoq bular bizga o'rgatib borilgan va eshitish, gapirish organlarimiz ona tilimiz uchun juda oson moslashgan. Lekin chet tillarini o'rganishda ularning talaffuzi ham, so'zlarning o'qilishi ham biznikidan farq qiladi. Bunday vaziyatni yaxshilash uchun bir qancha tavsiyalar mavjud bo'lib, ulardan eng yaxshi ish beradigani bu- taqlid qilish. Taqliq qilish uchun siz o'rganayotgan tildagi o'zingiz qiziqadigan yoki muxlisi bo'lgan insoningizni tanlab olishingiz mumkin. U xoh qo'shiqchi, artist, xoh suxandon bo'lsin, siz uning nutqiga taqlid qilib tallafuzingizni yaxshilab olishingiz mumkin. Agar siz ingliz tilini o'rganmoqchi bo'lsangiz, siz uchun ingliz tilidagi kinolarni diqqat bilan ko'rib eshitish, so'zlarni qayta-qayta eshitish orqali nutqingizni ingliz tilidagi so'zlarga moslashtirishingiz mumkin. Shunday hollar bo'ladiki, ba'zi bir o'rganuvchilar boshqa tildagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ularning aksentini o'xshatishga juda ham berilib ketganligidan aksincha vaziyatni yomonlashtirib qo'yadi, qachonki o'xshata olmasa va qo'pol talaffuzlar chiqib qolsa. Va atrofida gilar oldida kulgiga qoladi. Shunday ekan, dastlab yengilroq va osonroq gapirishga harakat qilish kerak. Yana bir yaxshi usul bu- ingliz atmosferasini yaratish. Shunday insonlar borki, ular dars xonani ingliz tilidagi rasmlar, ingliz davlatlari bayroqlari bilan bezatib qo'yadi va dunyoqarashini shakllantirishda ham inglizlardek o'ylashga, fikr yuritishga harakat qiladi. Ular nafaqat ingliz tilini, balki ularning urf-odatlarini, dunyoqarashi va yashash tarzini o'rganishga harakat qiladi. Bular ham ingliz tilini o'rganish jarayonini qiziqarli va oson qilish uchun muhim bo'lgan amallardir.

Xulosa qilib aytganda, til o'rganish har qaysi zamonda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan va ko'p til bilgan insonlar har doim boshqalardan bir pog'ona yuqori o'rinlarda bo'lgan. Ammo boshqa tillarni o'rganish jarayonida o'z tilini unutib yubormaslik, ularning o'lik tilga aylanib qolishiga sabab bo'lmaslik ham juda muhimdir. Til o'rganish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga

uchrash tabiiy hol, lekin bu uni o'rganishni to'xtatib qo'yish uchun asosiy sabab emas. Yuqorida sanab o'tilgan metodlar ko'plab insonlar tomonidan tajribadan o'tkazilgan bolib, til o'rganuvchilar uchun eng muqobil va munosib qo'llanma bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.wikipedia.org
2. www.prep.uz
3. Fazliddin Ro'ziboyev: "Milliy tilni qanday saqlab qolish mumkin?" maqolasi 2021-yil
4. Юнусов, М. М., Бахромова, Б. Х., & Мирзошарипова, М. Ш. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЧЎЛ, ТОҒ, АДирЛИҚЛАРИДАГИ БИОТОПЛАРДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАКЛАР РЎЙХАТИ ВА УЛАРНИНГ СИСТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(6), 223-229.
9. Бахромова, Б. (2023). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ТОҒ БИОЦЕНОЗЛАРИДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАКЛАР. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(10), 157-159.
10. Бахромова, Б. (2023). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЧЎЛЛАРИ БИОЦЕНОЗЛАРИДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАК ТУРЛАРИ ВАКИЛЛАРИ. Центральнаозиатский журнал образования и инноваций, 2(10 Part 2), 154-155.
11. Бахромова, Б. (2023). Фарғона водийсида учровчи ўргимчакларнинг айрим доминант турлари ҳаётий цикли ва динамикаси. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(7), 130-137.
12. Bakhromova, B. (2023). FARG 'ONA VODIYSI TOG 'OLDI BIOTSENOZLARI O 'RGIMCHAKLARINING XILMA-XILLIGI. Interpretation and researches, 1(7).
13. Бахромова, Б. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЯРУСЛАРИДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАК ТУРЛАРИ ОИЛАЛАРИНИНГ ФОИЗ ҲИСОБИДА СИСТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 212.
14. Bakhromova, B. (2022). ECOLOGICAL DISTRIBUTION OF SPIDERS OF THE FERGHANA VALLEY BY BIOTOPES. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 3(3), 77-80.
15. Bakhromova, B. (2014). SYSTEMATIC ANALYSIS OF THE ARACHNOFAUNA OF THE FERGHANA VALLEY. The Way of Science, 19.

16. Khasanovna, B. B. (2018). The brief history of the study of spiders (Arachnida: Araneae) in Fergana Valley. European science review, (9-10-1), 16-18.